



UDK:821.111

Gulasal BAKIROVA,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: gulasalbakirova90@gmail.com

O'zMU dotsenti, f.f.d B.To'rayeva taqrizi asosida

INDIVIDUALITY IN JAMES JOYCE'S STYLE IN THE USE OF PHONETIC MEANS IN THE NOVEL "ULYSSES"

Abstract

"Ulysses" is a very unique, unique and complex work of world literature. This work has been the subject of discussion among literary critics for many years. James Joyce wrote Ulysses not for ordinary readers, but for writers who lived in his time, that is, for special people. Therefore, understanding the language of the work seems a bit complicated. To date, unfortunately, the prosodic, or phonetic, analysis of the language of James Joyce's novel "Ulysses" has not been studied much in Uzbek literary studies. For this reason, this article focuses on the phonetic part of the stylistic devices in the work. At the same time, the types used in the phonetic analysis approach and the definitions given to them are also included. Some terms used in phonetic analysis are also explained. Excerpts from the work itself are analyzed prosodically.

Keywords: Prosodic analysis, Graphic expressiveness, Phonetic expressiveness, Onomatopoeia, Alliteration, Assonance, Rhythm, intonation.

"ULISS" ROMANIDA FONETIK VOSITALARNI QO'LLASHDA JEYMS JOYS USLUBIDAGI O'ZIGA XOSLIK

Annotatsiya

"Ulyss" jahon adabiyotining g'oyat o'ziga xos, noyob va murakkab asaridir. Bu asar yillar davomida tanqidchilarning turli muhokamalariga sabab bo'lgan. Jeyms Joys "Ulyss"ni oddiy kitobxonlarga emas, balki o'z davrida yashagan yozuvchilarga, ya'ni xoslariga yozgan. Shuning uchun asar tilini tushunish biroz murakkab. Bugungi kungacha o'zbek adabiyotshunosligida Jeyms Joysning "Ulyss" romani tilini prosodik, ya'ni fonetik tahlili o'rganilmagan. Shu sababi bu maqola asardagi stilistik vositalarning aynan fonetik qismiga urg'u qaratadi. Shu bilan birgalikda fonetik tahlil yondashuvida qo'llaniladigan turlar va ularga berilgan ta'riflar ham joy oladi. Fonetik tahlilda qo'llaniladigan ba'zi atamalar ham izoh beriladi. Asarning o'zidan oligan parchalar prosodik tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: prosodik tahlil, grafik ekspressivlik, fonetik ekspressivlik, onomatopoeiya, alliteratsiya, assonans, ritm, intonatsiya.

ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ СТИЛЯ ДЖЕЙМСА ДЖОЙСА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ФОНЕТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В РОМАНЕ «УЛИСС»

Аннотация

«Улисс» – поистине уникальное, неповторимое и сложное произведение мировой литературы. Это произведение долгие годы было предметом дискуссий литературоведов. Джеймс Джойс писал «Улисс» не для обычных читателей, а для писателей, живших в его время, то есть для особенных людей. Поэтому понимание языка произведения представляется несколько сложным. К сожалению, до настоящего времени просодический, или фонетический, анализ языка романа Джеймса Джойса «Улисс» мало изучен в узбекском литературоведении. По этой причине данная статья посвящена фонетической части стилистических приёмов в произведении. Приводятся типы, используемые в фонетическом анализе, и даны их определения. Также объясняются некоторые термины, используемые в фонетическом анализе. Анализируются отрывки из самого произведения с точки зрения просодики.

Ключевые слова: просодический анализ, графическая выразительность, фонетическая выразительность, онomatопея, аллитерация, ассонанс, ритм, интонация

Kirish. Jeyms Joys "Ulyss" romani ustida 1914-1922-yillarda ishladi. Romanda XX asr boshidagi Irlandiya va uning poytaxti Dublin hayotining yorqin manzaralari, inson ichki olami va u bilan bog'liq ijtimoiy hodisalarning benihoya teran qatlamlari aks etdi[9]. Joysning badiiy niyati bo'yicha roman qismlari va boblarida Gomerning "Odisseya" dostonining qo'shiqlariga o'xshash va mavhum voqealar yoritiladi. Adibning ilk qo'lyozmasida boblar Gomer dostoni qahramonlari va voqealar bo'lib o'tgan joylarning nomlari bilan sarlavhalangan edi. Epizodlar yana insonning biron a'zosini ramziy tarzda ifodalaydi, butun holda esa roman inson vujudini in'ikos etadi. Shular bilan bog'liq holda Joys har bir epizodning alohida san'ati, o'ziga xos qurilishi, arxitekturasini, o'zgacha takrorlanmas uslubini yaratadi. Shunday g'ayrioddiy uslub, badiiy kashfiyotlar vositasida Joys kitobxonni qahramonlarning

juda murakkab hamda maftunkor olamiga olib kiradi. Joys har bir epizodik voqealarni vaqt oqimi bilan ham chambarchas bog'laydi va har bir epizodda o'ziga xos tasvir usullarini qo'llaydi[5]. Asar stilistik vositalarga boyligi bois prosodik tahlil qilish maqolaning maqsadi hisoblanadi. Jeyms Joys fonetik vositalar orqali estetik ta'sirni kuchaytiradi, nutqning tabiiyligini ifodalaydi, musiqiy ohang yaratadi, qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni, ichki holatini tovushlar orqali ifodalaydi. Ijodkor mahoratidagi o'ziga xoslik shundaki, tovushlarni so'zlardan ajratmaydi, ya'ni tilni san'at darajasiga ko'taradi. Romanda irland, ingliz, yahudiy, dengizchi talaffuzlarini matnda fonetik tarzda aks ettirgani bois personajlarning milliy va ijtimoiy farqlarini ko'rsatadi, badiiy voqelikni reallikka yaqinlashtiradi.

Asosiy qism. Grafik ekspressivlik –matnda tovush, ohang yoki emotsiyani kuchaytirish maqsadida yozuv (grafik) shakllaridan foydalanishdir. Bu vositalar yordamida muallif matnni hissiy, emotsional yoki ekspressiv qilishga harakat qiladi[8,6]. Bunga misol qilib;

Nuqtalar... – Thump on the head. Outtohelloutofthat. Human life. Dignam. Ugh, that rats,tail wriggling! Five sway I gave[1,293] pauza, noaniqlik, iztirob yoki o'yga toldirish.

Tire – — One of the most polished periods I think I ever[1, 12]

listened to in my life fell from the lips of Seymour Bushe. kuchli emotsionallik yoki urg'u.

Ko'paytirilgan harflar Steeeeeeeeeeeephen [1], Waaaaaaalk[1, 519]– his-tuyg'uni kuchaytirishlarni keltirish mumkin.

Fonetik ekspressivlik – tovush vositalari orqali matnning emotsional yoki obrazli-ta'sirchanligini oshirish. Bu yerda muayyan tovushlarning (masalan, undoshlar yoki unli tovushlar) takrorlanishi, onomatopoeik (tovushga taqlid) usullar, alliteratsiya, assonans va boshqalar ishlatiladi [2].

Onomatopoeiya: Tap blind walked tapping by the tap the curbstone tapping, tap by tap[1] – tovushni tasvirlash orqali obrazli effekt yaratadi.

Alliteratsiya: bir xil undosh tovushlar takrorlanishi: "The snotgreen sea, the scrotumtightening sea"[1].

Assonans: bir xil unli tovushlar takrorlanishi: "Who knows? The tide may turn, the wind may blow."

Bundan tashqari stilistik fonetik vositalar ham asar tahlilida muhim ro'l o'ynaydi, quyida unga berilgan ta'rif va uning ma'no anglatishiga ko'ra turlari:

Stilistik-fonetik vositalar – nutqda uslubiy maqsadlarda qo'llanishidir. Bu vositalar ishlatiladi[3]Fonetik takrorlar (alliteratsiya, assonans) – fonetik-stilistik vosita bo'lib, gapga melodik effekt ajratish uchun qo'llaniladi. Ushbu vositaning mohiyati shundan iboratki, unli va undosh tovushlar takrorlanadi [2] "The snotgreen sea, the scrotumtightening sea." (1-bob, Telemachus) [S]. tovushi ketma-ket takrorlanib, dengizning shovqinli va sovuq ohangni yaratadi. "Snotgreen sea" (yashil dengiz) birikmasi dengizning noqulay, zerikarli va yoqimsiz hissini tovush orqali ifodalaydi. "S" tovushi go'yo shivirlagan shamol yoki dengiz to'lqinlarining shovqini kabi eshitiladi. Adib tovush takroridan shunchaki tasvir emas, balki eshitiladigan obraz yaratadi. "Who knows? The tide may turn, the wind may blow." (Nestor, 2-bob). [O] tovushi takrorlanib, ohista, tinch ohangni ifodalaydi, ohangdorlik va hissiylikni kuchaytiradi. Bunda qahramonning ichki o'yga tolisi unli tovush takrori bilan aks ettirilgan.

2. Onomatopoeik so'zlar – nutq tovushlarining birikmasi bo'lib, muayyan maqsadni ko'zlaydi: tabiatda (shamol, dengiz, momaqaldiroq va boshqalar) hosil bo'lgan tovushlarni taqlid qilishda narsalar (mashinalar yoki asbob-uskunalar va boshqalar), odamlar tomonidan (xo'rsinish, kulish va boshqalar) va hayvonlar tomonidan [6, 336]. Ushbu turdagi nutq tovushlarining kombinatsiyasi tabiiy tovushni hosil qiladigan narsa bilan muqarrar ravishda bog'lanadi. Shuning uchun onomatopeya va uning hodisasi o'rtasidagi bog'liqlik ifodalashi kerak bo'lgan so'z metonimiyadan biridir [2]. "Prrppffrrppfff" (4-bob, Calypso). Leopold Bloom shamollaganda burnini tozalash jarayonida eshitiladigan bu tovush orqali kitobxonga reallikni eshitish orqali his qilish 1-jadval

"Uliiss" romanida fonetik vositalarning prosodik tahlili

Komponent	Mazmuni / ta'siri	Misollar va tahlil
-----------	-------------------	--------------------

imkonini yaratadi. "Clackclackclack." (Sirens). "Clack"ning ritmik davomiyliги pianino klavishlari yoki idishlarning bir-biriga urilish natijasida yuzaga kelgan tovushia o'xshaydi. Natijada o'quvchi mutolaa jarayonida "eshitadi", ya'ni "ichki tovush muhiti" yuzaga keladi, go'yo haqiqiy tovush eshitilgandek bo'ladi. "Tap. Tap. Tap." (Hades). Bu oyoq tovushini bildiradi. Takror tovushlarning tartibli, ohista ohangi orqali yozuvchi ritm va kayfiyatni ifodalaydi.

3. Ritm va intonatsiya vositalari his-tuyg'ularni qo'zg'atadigan kuchli qurol.Ritmning eng umumiy ta'rifi quyidagicha ifodalanishi mumkin: "Ritm –xarakterli oqim, harakat, jarayon va boshqalar asosan elementlar yoki xususiyatlarning muntazam takrorlanishi bilan yoki aksent, qarama-qarshi yoki turli elementlar bilan almashish xususiyatlaridir" [4]. Shu bilan birgalikda, urg'u va pauzalar orqali matnning stilistik bo'yoqdorligi ham mavjud bo'lib bu orqali ham muallif o'z g'oyalarini o'quvchiga yetkazadi. "Bronze by gold heard the hoofirons, steelyringing." (11-bob, Sirens). Undoshlar ketma-ketligi (b, g, h, s, r) metall ohangini hosil qiladi. "Steelyringing" so'zi metall chalingan tovushni ifodalaydi. Butun bob musiqağa yo'g'rilgan holda yozilgani bois so'zlar orqali nota, ritm, tovushning jarangi yaratilgan.

Sokinlik va keskinlikni ham alohida o'rinda keltirish lozim, chunki asar qahramonining voqealar ketma-ketligiga qanday qarashi ifodalanadi. Buni yozuvchi fonetik vositalar orqali beradi[10, 6]. Yumshoq undoshlar [m], [n], [l], [s] va past unililar [u], [o] orqali osoyishtalik, ohista ritm, tabiat yoki ichki monolog ohangi yuzaga kelsa, qattiq portlovchi tovushlar [k], [t], [p], [r], [gr] taranglik, qo'rslik, qo'pollik, sovuqlik, qo'rquv yoki hayajon hissini hosil qiladi. Joyce tovushni qahramon kayfiyatini ifodalovchi hissiyot vositasi sifatida ishlatadi, adib go'yo yozmaydi, "eshittiradi". Adib uslubidagi o'ziga xoslik shundaki, asardagi har bir tovush ruhiy holatni ifodalovchi "nota"ga aylanadi, qahramon hayotining tinch va sokin onlarida yumshoq simfoniya, keskin va kuchli drammatizm onlarida keskin perkussiya yangraydi. Joyce tinch, xotirjam sahnalarda yumshoq [m], [n], [l], [s], [u], [o] tovushlarini qo'llaydi. "Murmur of bees in June." (Sirens, 11-bob). [M] va [u] tovushlari yumshoq takrorlangan: "murmur" – pichirlash yoki shivirlagan tovush, "bees" – pashshalarning g'uvillashi, "June" – iliq yoz oyining ohangdor jozibasini hosil qiladi. Bu tovushlar uyg'unlikda kitobxonga tabiatning osoyishta, musiqiy tovushini eshittiradi. Go'yo o'quvchi asar voqealarini idrok qilish natijasida bog' ichida "shivirlagan" hayotni his qiladi.

"Bang of the door burst boom blindly." Gapda "b" portlovchi undoshi (perkussiv tovush), kuchli ohang bilan talaffuz qilinadi. "Bang, burst, boom, blindly" so'zlarida [b] tovushi takrorlangan. "B" tovushining ketma-ket qo'llanilishi keskin o'zgarish yoki ichki portlashni eshittiradi. Kitobxon asar voqealarining jonli ravishda ro'y berayotganiga ishonadi, tovushlarni hatto eshitadi, go'yo yomg'ir sharros quyayotgandek, qadamlar shiddat bilan odimlayotgandek, eshik qattiq yopilgandek yoki yurak tez ura boshlagandek his qiladi. Bu usul Joysning misli ko'rilmagan, boshqalarda uchramagan, o'ziga xos mahoratini ko'rsatadi.

Prosodik tahlil – nutqning intonatsion jihatlaridir: intonatsiya, urg'u, pauza, temp (tezlik), ohang va ritmlarni o'z ichiga olgan holda muayyan bir matn yoki asar tilini tahlil qilish nazarda tutiladi[7].

Ritm	Tovushlar va so'zlarning takrorlanishi, gapdagi ohang va temp orqali ruhiy holat yoki kayfiyatni ifoda qilish.	“Proteus” epizodida Stephen Dedalus plyaj bo'yida ketar ekan, uning fikrlari va qarashlari to'lqinga o'xshash ravishda uzluksiz oqadi. Misol uchun: “Woodshadows floated silently by through the morning peace from the stairhead seaward where he gazed.” [1,14] Bu jumlada ritmik qurilish – undoshlar va unli tovushlar orasidagi muvozanat, takroriy “-ed”, “-ing” shakllari, uzun gap, yo'llarning o'zaro bog'lanishi hissi bor.
Intonatsiya	Ishlatilgan nutq uslubi (ichki monolog, dialog, ommaviy nutq), ohang ko'tarilishi/pastlanishi – asosan hissiylik, dramatik effekt berish.	Boblarning ayrimlarida (xususan “Penelope” – Molly Bloomning so'zlari) nutq deyarli punktuatsiyasiz, ohangsiz yoki tabiiy so'zlashuv ohangida berilgan – bu real va shaxsiy ichki ovoznin ekvivalentidir. Ohang – odatdagi so'zlar, pauzasiz oqim, ruhiy holatning ichki oqimi.
Urg'u	So'z ichida va gap ichida ma'lum qismlarga e'tibor qaratish – kimning fikri, nimaga urg'u berilgan.	“Sirens” epizodi – tovushga asoslangan uslubi bilan “jingling”, “jingle”, “tinkling”, [1,461] va hokazo so'zlar takrorlanadi. Ushbu takrorlanish orqali urg'u hosil bo'ladi – shovqin, ritm, hissiy ta'sir
Pauza	Nutq oqimida to'xtamlar, fikr yuritishda quyuq bo'shliq; ichki his-tuyg'u, biror tasavvurga kirishish, o'zga toldirish.	“Proteus” epizodida sifatli pauzalar bor – fikrlar orasida – “limits of the diaphane. But he adds: in bodies. Then he was aware of them bodies...” [1,64-65] kabi iboralar orasida pauzalar orqali susayish va taassurot, hissiyotning chuqurlashuvi.
Onomatopoeiya va tovush effekti	Tovushga taqlid qiluvchi so'zlar va umumiy akustik effektlar sokin va keskin holatni ifodalaydi.	“Aeolus” bobida shahar shovqini, gazetalar shovqini, ovozlarning qaytishi, ovoz effektlari – “jingling harnesses”, “hoofthuds” [1,299] kabi so'zlar.

Xulosa. Jeyms Joysning “Ulyss” romani nafaqat XX asr adabiyotining murakkab, balki stilistik jihatdan ham nihoyatda boy asarlaridan biridir. Ushbu asarda muallif fonetik vositalardan foydalangan holda o'ziga xos va universallikni uyg'unlashtirib, tilning go'zalligi va ma'no qatlamlarini chuqur ochib beradi. Asar tilidagi prosodik va fonetik qurilmalar – alliteratsiya, assonans, onomatopoeiya, ritm, intonatsiya kabi elementlar – romanning obrazlilik darajasini oshirib, qahramonlarning ichki ruhiy holatini, kayfiyatini, his-tuyg'ularini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Prosodik tahlil orqali aniqlanishicha, “Ulyss” tilida qat'iy va puxta tuzilgan fonetik model mavjud bo'lib, bu model har bir epizodning ma'naviy va estetik maqsadlariga mos ravishda o'zgarib, keng qamrovli va murakkab fonetik obrazlarni yaratadi. Muallifning fonetik vositalarni mahorat bilan qo'llashi orqali o'z davri va undan keyingi adabiyotga katta hissa qo'shganligi, shuningdek, tilning imkoniyatlarini kengaytirganligi aniq ko'rinib turibdi.

Shuningdek, “Ulyss” asarida fonetik vositalarning estetik vazifasi bilan birga, ular qahramonlarning ichki olamini

ifodalash, voqealarni jonlantirish va o'quvchini asarga chuqurroq tortishdagi kommunikativ funksiyasi ham muhimdir. Jeyms Joysning ushbu murakkab, ammo samimiy va jonli uslubi orqali asar nafaqat o'z davrining, balki butun insoniyat adabiy merosining nodir namunasi sifatida qolmoqda. Romanda fonetik vositalar tovushlar orqali badiiy tasvir yaratgani (sea, wind, music, steps); personajlarning nutq ohangini farqlagani, tovush va ma'no uyg'unligini ko'rsatgani hamda musiqiylik va reallik hissin kuchaytirgani bois Joyce tilda nafaqat ko'rish, balki eshitish tajribasini yaratadi.

Shu sababli, “Ulyss” romanining fonetik jihatdan tahlili nafaqat Jeyms Joysning badiiy uslubini, balki zamonaviy tilshunoslik va stilistika nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Kelajakda ushbu mavzudagi tadqiqotlarning yanada chuqurlashishi va kengayishi o'zbek adabiyotshunosligiga yangi ilmiy ufqlar ochishi, shuningdek, jahon adabiyotining yuksak namunalari tushunishga hissa qo'shishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR

1. Joys Jeyms. Ulysses. – London: Picador, 1998. – 826 p.
2. Galperin I.R. English Stylistics. – Moscow, 1962. – 333 p.
3. https://studopedia.net/21_121690_Phonetic-Expressive-Means-and-Stylistic-Devices
4. Webster's New World College Dictionary. Copyright Houghton Mifflin Harcourt Publishing Company, 2014. – 402 p.
5. Жойс Жеймс. Улисс саргузаштлари: роман /Ж Жойс; рус тилидан И. Фафуров. – Тошкент: O'zbekiston, 2012. – 380 b.
6. de Saussure F (2011) Course in general linguistics. New York City: Columbia University Press. – 336 p.
7. Methods in Empirical Prosody Research Stefan Sudhoff, Denisa LenertovaRoland Meyer, 2012. – 391 p.
8. HaixiaXu, LiLi Shi Analysis of Graphic Language Expression in Visual Communication Design <https://doi.org/10.1155/2022/2434992> 2022 p 6
9. Morris Beja. James Joyce: A Literary Life. – London: Macmillan 1992. – 180 p.
10. Beata Smela Rapid literature review: definition and methodology //Journal of Market Access & Health Policy, 2023. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/20016689.2023.2241234#d1e247>